

Elyor SAIDOV*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

O‘ZBEKISTON BANK TIZIMINING 2020–2024 YILLARDAGI TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya Ushbu maqola O'zbekiston tijorat banklarining 2020–2024-yillardagi rivojlanish tendentsiyalarini keng qamrovli tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda bank tizimining aktivlar hajmi, kredit portfeli, kapital yetarliligi, depozit bazasi va samaradorlik ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimida davlat ulushining hali ham yuqori ekanligi (aktivlarning 68%), dedollarizatsiya jarayonlarining ijobiy dinamikasi hamda raqamli transformatsiyaning samaradorlikni oshirishdagi strategik ahamiyatini ko'rsatib berdi. Xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, institutsional muhitni yaxshilash va fintech innovatsiyalarini keng joriy etish bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, likvidlik riski, makroiqtisodiy omillar, bank samaradorligi, dedollarizatsiya, raqamli transformatsiya, bank tizimi islohotlari.

STRUCTURAL TRANSFORMATION AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN FOR 2020-2024

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the development trends of commercial banks in Uzbekistan over the period 2020–2024. The study examines the dynamics of key banking indicators, including total assets, loan portfolios, capital adequacy, deposit bases, and operational efficiency. The findings reveal that state-owned banks continue to dominate the banking sector, controlling 68% of total assets and 71% of credit portfolios. Positive trends in de-dollarization, a narrowing interest rate margin, and the strategic importance of digital transformation in enhancing banking efficiency are also highlighted. The article concludes that accelerating privatization, improving the institutional environment, and widely adopting fintech innovations are essential for increasing the competitiveness and resilience of the Uzbek banking sector.

Keywords: commercial banks, liquidity risk, macroeconomic factors, banking efficiency, de-dollarization, digital transformation, banking sector reforms.

Kirish

Bugungi jadal galobalashayotgan moliyaviy tizimda tijorat banklari iqtisodiyotning birlamchi vositachilari sifatida muhim o‘rin tutib turadi. Bu esa ularning faoliyat samaradorligini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi hamda iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil deyish mumkin. Banklar faoliyati samaradorligining kontseptsiyasi ko‘p o‘lchovli tushuncha bo‘lib, u moliyaviy ko‘rsatkichlar xususan, rentabellik, likvidlik, kapital yetarligini va operatsion

samaradorlik (xarajatlarni boshqarish, biznes-jarayonlar optimalligi), strategik muvaffaqiyatlarni hamda ijtimoiy mas'uliyat kabi turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Tijorat banklarining samaradorligini oshirish masalasi faqat amaliy jihatdan muhim bo'lib qolmaydi, balki chuqur nazariy asoslarga tayangan holda shakllanadi. Ushbu nazariy asoslar iqtisodiy, moliyaviy boshqaruv konsepsiyalari, institutsional iqtisodiyot, strategik menejment va zamonaviy raqamli transformatsiya yondashuvlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida rivojlanish jarayonida bormoqda. Aynan shu yondashuvlar banklar faoliyatini samarali tashkil etish hamda resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning ilmiy poydevorini belgilab beradi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlar doirasida tijorat banklarining samaradorligini oshirish hamda ilmiy-nazariy asoslari kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bu esa bank faoliyati samaradorligini oshirish masalasini har tomonlama yoritish va ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tadqiqotning maqsadi bank faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy kontseptual ramkalarini aniqlash, turli nazariy yondashuvlarning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda zamonaviy bank amaliyotida bu nazariyalarning qo'llanilish mexanizmlarini yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida bank faoliyati samaradorligining metodologik jihatlari, samaradorlikni baholash yondashuvlari, samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar tizimi, bank strategiyalarining nazariy asoslari hamda raqamlashtirish va innovatsiyalar nazariyasi kontekstida zamonaviy bank samaradorligini oshirish yo'nalishlari chuqur o'rganiladi.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini ilmiy nuqtai nazardan tushunish uchun avvalo samaradorlik kontseptsiyasining o'zini nazar iy jihatdan aniqlash zarur. Bank kontekstida texnik samaradorlik jalb qilingan mablag'lar, kapital, mehnat resurslari va texnologik infratuzilma kabi kirishlardan maksimal daromad, kredit portfeli va moliyaviy xizmatlar hajmini ishlab chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Allokativ samaradorlik esa resurslarni optimal kombinatsiyada ishlatish qobiliyatini anglatadi, ya'ni bank turli resursar (depozitlar, qarzlar, kapital) nisbatini ularning nisbiy narxlari va samaradorligi asosida optimal tarzda tanlashi kerak [1].

H. Leibenstein tomonidan taqdim etilgan X-samaradorlik kontseptsiyasi bank ichki tashkiliy samaradorlik masalalariga e'tiborni qaratadi va bu kontseptsiya shuni ta'kidlaydiki, bir xil texnologiya va bozor sharoitlarida faoliyat yurituvchi banklar ham turli darajadagi samaradorlikka erishishlari mumkin, bu esa ichki tashkiliy omillar, menejmenting sifati, korporativ madaniyat va xodimlar motivatsiyasi bilan bog'liq. Miqyos samaradorligi esa banklar faoliyat hajmini o'zgartirish orqali qanday samaradorlik o'zgarishlariga erishishlari mumkinligini o'rganadi va bu kontseptsiya miqyos iqtisodiyoti (economies of scale) hamda qamrov iqtisodiyoti (economies of scope) nazariyalariga asoslanadi. Miqyos iqtisodiyoti banklar faoliyat

hajmini oshirish natijasida o'rtacha xarajatlarning kamayishini anglatadi, chunki qat'iy xarajatlar (infratuzilma, IT-tizimlar, brendni rivojlantirish) katta hajmga taqsimlanganda birlik uchun xarajat kamayadi. Qamrov iqtisodiyoti esa banklar turli mahsulot va xizmatlarni birgalikda taqdim etish orqali samaradorlikka erishishlari mumkinligini ta'kidlaydi, chunki bir mijozga bir necha xizmat ko'rsatish har bir xizmatni alohida ko'rsatishdan arzonroq bo'lishi mumkin [2].

Bank faoliyati samaradorligini nazariy jihatdan tushunishda yana bir muhim yondashuv stakeholder nazariyasi (Freeman [3], 1984) hisoblanadi, bu nazariya bank faoliyatini faqat aktsiyadorlar manfaatlarini maksimallashtirish nuqtai nazaridan emas balki barcha manfaatdor tomonlar (mijozlar, xodimlar, tartibga soluvchi organlar, jamiyat, kreditorlar) manfaatlarini muvozanatlash sifatida ko'rib chiqadi. Institusional iqtisodiyot nazariyasi (North [4], 1990; Williamson [5], 1985) ham bank faoliyati samaradorligini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu nazariya shartnomalik munosabatlar xarajatlari (transaction costs), mulkchilik huquqlari, institusional muhit sifati va qoidalar tizimining bank samaradorligiga ta'sirini ta'kidlaydi. Bank faoliyati ko'plab shartnomalik munosabatlar (kreditlar, depozitlar, xizmat shartnomalar) asosida amalga oshadi va bu munosabatlarni boshqarish xarajatlari (monitoring, ma'lumot asimmetriyasini bartaraf etish, agent muammolarini hal qilish) bank samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Institusional muhit sifati, ya'ni huquqiy tizimning barqarorligi, shartnomalarning ijro etilishi kafolatlari, sud tizimining samaradorligi, korrupsiya darajasi hamda tartibga solish sifati bank faoliyati samaradorligini belgilovchi tashqi institusional omillar hisoblanadi. Ojiz institusional muhitda banklar yuqori xavf mukofotlarini talab qiladi, kredit riskini baholash murakkablashadi hamda muammoli kreditlar bilan ishlash xarajatlari oshadi, bu esa umumiy samaradorlikni pasaytiradi.

Adabiyotlar sharhi

Lee, Li, Yu va Zhao tomonidan olib borilgan tadqiqotda fintech innovatsiyalarining Xitoy bank sektoridagi samaradorlikka ta'siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, mualliflar fintech innovatsiyalarining bank faoliyatiga ikki asosiy yo'nalishining ta'sir ko'rsatishini ta'kidlanadi. Banklar faoliyati samaradorligini oshirish jarayonida institutsional va tarkibiy islohotlarning o'rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va bu jarayonlarda davlat tomonidan moliyaviy tartibga solish tizimini izchil modernizatsiya qilish hamda banklar nazorati mexanizmlarini kuchaytirish, bank sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlovsh ishlari muhim shartlardan biri hisoblanadi. Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan muvozanatli va izchil pul-kredit siyosati inflyatsiya jarayonlari va ularni jilovlash, milliy valyuta barqarorligini mustahkamlash hamda investitsion muhitni yaxshilash orqali banklar tizimining uzluksiz faoliyat yuritishi

uchun makroiqtisodiy sharoitni shakllantiradi. Bu omillar bank sektorining uzoq muddatli rivojlanishi hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish, norasmiy iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish va bank tizimiga bo'lgan ishonch darajasini oshirish orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois bank sektorida innovatsion yechimlarni izchil joriy etish va samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirish rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu sababli, fintech rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun banklar va tartibga soluvchi organlar o'zaro hamkorlikda ishlashi lozimligi ta'kidlangan [6].

Umar, Ji, Mirza va Rahat tomonidan olib borilgan tadqiqotda "resurs la'nati" fenomenining bank tizimi samaradorligiga ta'siri nazariy hamda empirik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Nazariy jihatdan mualliflar tabiiy resurslarga boy mamlakatlarda bank tizimi samaradorligi nisbatan past bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Tadqiqotda resurs la'nati sharoitida hukumatlar va yirik korporatsiyalarning tabiiy resurslardan olinadigan daromadlarga haddan tashqari tayanib qolishi xususiy sektor rivojlanishini cheklashi hamda banklarning moliyaviy vositachilik funksiyasini susaytirishi ko'rsatib beriladi. Mualliflar resurslarga asoslangan iqtisodiyotlarda bank sektorining rivojlanishi ko'pincha korrupsiya darajasining yuqoriligi, institutsional muhit sifatining pastligi va moliyaviy barqarorlik mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan cheklanishini qayd etadilar.

Tadqiqotda 12 ta neft eksport qiluvchi mamlakatlarning 2000-2017 yillar oralig'idagi ma'lumotlari panel regressiya usullari yordamida tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yuqori daromadga ega bo'lgan tabiiy resurslarga tayanadigan mamlakatlarda bank samaradorligi pastroq bo'lib, bu resurs la'natining bank sektoriga salbiy ta'sirini aks ettiradi. Iqtisodiy daromadlarning asosi neft va gaz eksporti bilan bog'liqligi hamda bank kreditlash hajmining cheklanishiga, kapital oqimlarining samarasiz taqsimlanishiga va moliyaviy institutlarning sust rivojlanishiga olib keladi. Mualliflar ushbu muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy diversifikatsiya siyosatini kuchaytirish, institutsional islohotlarni amalga oshirish va bank tizimining mustaqilligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi [7].

Martens, Yapa, Safari va Watts tomonidan olib borilgan tadqiqotda daromadlarni boshqarish (earnings management) amaliyotlarining chegara bozorlardagi (frontier markets) bank samaradorligiga ta'siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda 2010-2019 yillar oralig'ida bir qancha chegara bozorlaridagi banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari panel ma'lumotlar tahlili orqali o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, daromadlarni boshqarish bilan faol shug'ullangan banklarning samaradorlik darajasi pasaygan, chunki bunday

amaliyotlar kredit xavflarining ortishiga, investitsion qarorlarning noto'g'ri qabul qilinishiga va bank sektorining umumiy barqarorligining zaiflashishiga olib kelgan. Muallif muammolarni bartaraf etish uchun bank regulyatsiyasini kuchaytirish va shaffof moliyaviy hisobotlarni ta'minlash hamda mustaqil audit tizimini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi [8].

Anto, Pangestusti va Purwandari tomonidan olib borilgan tadqiqotda ASEAN-5 mamlakatlarida (Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailand) bank samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi, bunda bank hajmi nazorat o'zgaruvchisi sifatida qo'llaniladi. Nazariy jihatdan, mualliflar bank samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida aktivlar hajmi, kapital yetarliligi, kredit xavfi, daromadlilik va operatsion xarajatlarni qayd etadilar. Mualliflar gigant banklar iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shishi mumkinligini ta'kidlaydilar va ularning hajmining samaradorlikka ta'sirini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Empirik tahlil natijalari 2015-2020 yillar oralig'ida ASEAN-5 mamlakatlaridagi tijorat banklarining moliyaviy ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan. Panel regressiya modeli natijalari bank hajmi va samaradorlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa-da, bu bog'liqlik har bir mamlakat va bank turiga qarab farq qilishi aniqlangan. Gigant banklar texnologik innovatsiya va operatsion samaradorlikni oshirish va ustunlikka ega bo'lishlari amaliyotda kuzatilmoqda. Kichik va o'rta banklar moliyaviy barqarorlikni saqlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligi ta'kidlangan. Tadqiqotchilar bank samaradorligini oshirish uchun institutsional islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy boshqaruv tizimini mustahkamlash lozimligini ta'kidlaydilar [9].

Minh Sang tomonidan olib borilgan tadqiqotda COVID-19 pandemiyasining Vetnam bank sektorining samaradorligiga ta'siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Nazariy tahlilda muallif pandemiya bank tizimiga turli yo'llar bilan ta'sir ko'rsatganini ta'kidlaydi: iqtisodiy faollikning pasayishi kredit talabining qisqarishiga, to'lov kechikishlari esa banklarning likvidlik muammolariga duch kelishiga olib kelgan. Pandemiya davrida raqamli moliyaviy xizmatlarning ahamiyati jadal rivojlangan bo'lsa-da, operatsion xarajatlarning oshishi bank samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Empirik tahlil 2018-2021 yillar oralig'ida Vetnamning tijorat banklari bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan bo'lib, ma'lumotlar Data Envelopment Analysis (DEA) usuli yordamida tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, pandemiya davrida Vetnam bankining samaradorlik darajasi sezilarli pasaygan va ayniqsa, kichik va o'rta banklar ushbu inqirozdan ko'proq zarar ko'rgan. Biroq, muallif pandemiyadan so'ng raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va risklarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirish orqali bank samaradorligini tiklash mumkinligini ta'kidlaydi [10].

Tadqiqot metodologiyasi

Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik baholashlardan foydalanilgan .

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasining bank tizimi so‘nggi besh yil davomida fundamental transformatsiya jarayonini boshidan kechirdi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Tahlil qilinadigan 2020-2024 yillar davri COVID-19 pandemiyasining global ta‘siri, iqtisodiy liberalizatsiya siyosati, raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi va bank sektorini tizimli isloh qilish strategiyasining amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur davr moliyaviy institutlarning zamonaviylashuvi, xalqaro standartlarga moslashuvi hamda bank sektorida raqobat muhitining kuchayishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2020 - 2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi bank sektori rivojlanishining institutsional asosini belgilab bergan muhim hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu strategiya doirasida bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, raqobat muhitini rivojlantirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish hamda aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish kabi ustuvor maqsadlar belgilanadi. Strategiya amalga oshirilishi natijasida bank tizimi miqyosi sezilarli darajada kengaydi, xizmatlar sifati yaxshilandi va zamonaviy moliyaviy texnologiyalar amaliyotga faol joriy etila boshlanadi.

Markaziy banki tomonidan e‘lon qilingan rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga mamlakat tijorat banklari tizimining jami aktivlari 652.2 trillion so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich dollar ekvivalentida qariyb 53.7 milliard AQSh dollariga teng bo‘lib bu kredit portfeli hajmi 471.4 trillion so‘mga, bank kapitali esa 97.1 trillion so‘mga yetkazgan. Ushbu ko‘rsatkichlar 2020 yil bilan taqqoslaganda deyarli ikki baravar o‘shishni namoyon etib, bank sektorining real iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi roli tobora kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, kredit portfelinings YaImga nisbati har yili o‘rtacha 1.9 foiz bandga oshib, 2024-yilda 30.2 foizga yetadi, bu esa moliyaviy chuqurlikning progressiv o‘shishidan dalolat beradi.

1-jadval

Bank tizimining tarkibiy tuzilmasi (2024 yil, 1-yanvar holatiga) [11]

Ko‘rsatkich	Davlat banklari	Ulushi (%)	Xususiy banklar	Ulushi (%)	Jami
Aktivlar (trln so‘m)	441,8	68,0%	210,4	32,0%	652,2

Ko'rsatkich	Davlat banklari	Ulushi (%)	Xususiylar banklari	Ulushi (%)	Jami
Kreditlar (trln so'm)	333,3	71,0%	138,1	29,0%	471,4
Kapital (trln so'm)	63,2	65,0%	33,9	35,0%	97,1
Depozitlar (trln so'm)	124,4	51,0%	117,3	49,0%	241,7
Banklar soni (dona)	10	28,6%	25	71,4%	35

O'zbekistonning bank tizimining institutional tuzilmasi 2024-yil boshiga kelib sezilarli o'zgarishlarni boshidan kechirdi va zamonaviy moliyaviy arxitekturaga ega bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatda 35 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatmoqda va har biri o'ziga xos xususiyatlarga, strategik yo'nalishlarga va bozor pozitsiyasiga ega. Bank tizimining muhim xususiyati shundan iboratki, davlat ulushi mavjud banklar hali ham dominant mavqega ega bo'lib, ular aktivlarning 68 foizini, kredit portfelining 71 foizini va kapitalning 65 foizini nazorat qilmoqda. Xususiylar banklari esa aktivlarning 32 foizini, kreditlarning 29 foizini va kapitalning 35 foizini tashkil etib, tobora kuchayib borayotgan raqobat kuchini namoyon etmoqda.

2-jadval

Bank tizimining YaIMdagi ulushi dinamikasi (2020-2024) [11]

Yil	YaIM (trln so'm)	Bank aktivlari (trln so'm)	Aktivlar/YaIM (%)	O'sish (foiz band)
2020	893,5	280,5	31,4%	-
2021	1.043,0	368,4	35,3%	+3,9
2022	1.226,4	462,8	37,7%	+2,4
2023	1.373,8	547,3	39,8%	+2,1
2024	1.560,2	652,2	41,8%	+2,0
O'rtacha yillik o'sish			+2,6 foiz band	

Bank tizimining Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tahlil davri mobaynida barqaror o'sish tendentsiyasini namoyish etdi. 2020 yilda bank aktivlarining YaIMga nisbati 31,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 35,3 foizga, 2022 yilda 37,7 foizga, 2023 yilda 39,8 foizga ko'tarildi va 2024 yilda 41,8 foizga yetdi. Taqqoslash uchun aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 80-120 foiz oralig'ida bo'ladi, demak O'zbekiston bank tizimi hali katta o'sish potentsialiga ega.

Tijorat banklari aktivlarining dinamikasi O'zbekiston bank tizimining rivojlanishini eng yaxshi tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biridir. 2020 yilda jami aktivlar 280,5 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, dollar ekvivalentida bu taxminan 27,2 milliard dollarga to'g'ri keladi. Bir yillik davr ichida, ya'ni 2021 yilda, aktivlar hajmi 368,4 trillion so'mga yetdi va o'sish sur'ati 31,3 foizni tashkil etdi. Bu eng

yuqori o'sish sur'ati bo'lib, pandemiyadan keyingi tiklanish davri, davlat tomonidan bank sektoriga keng ko'lamli qo'llab-quvvatlash dasturlari va kreditlashning faollashuvi bilan bog'liq edi.

2.4-jadval

Tijorat banklari aktivlarining dinamikasi (2020-2024) [11]

Yil	Aktivlar (trln so'm)	O'sish (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)	Dollar ekvivalenti (mlrd \$)	Dollar kursi (so'm/\$)
2020	280,5	-	-	27,2	10.320
2021	368,4	+87,9	+31,3%	34,5	10.670
2022	462,8	+94,4	+25,6%	41,8	11.070
2023	547,3	+84,5	+18,3%	48,9	11.190
2024	652,2	+104,9	+19,2%	53,7	12.140
O'sish (jami)	+371,7		+132,5%	+26,5 mlrd \$	
O'sish (ko'paytma)	2,33 baravarga			1,97 baravarga	

2022 yilda aktivlar hajmi 462,8 trillion so'mga ko'tarilib, o'sish sur'ati 25,6 foizni tashkil etdi. 2023 yilda aktivlar 547,3 trillion so'mga yetdi va o'sish sur'ati 18,3 foizga sekinlashdi, bu esa bozorning pishib borishi va bazaviy effektning ta'sirini ko'rsatadi. 2024 yilda bank tizimi aktivlari 652,2 trillion so'mga yetib, yil yakunlari bo'yicha 19,2 foizlik o'sish sur'atini namoyon etdi. Ushbu dinamika bank sektorining barqaror rivojlanish tendensiyasi saqlanib qolayotganini tasdig'i bo'ldi. To'rt yillik davr davomida aktivlar hajmi 2,33 baravarga oshib, mutlaq hisobda 371,7 trillion so'mlik o'sish qayd etildi.

Aktivlar tarkibining tuzilishi bank tizimida shakllangan biznes modeli va strategik ustuvor yo'nalishlarni yaqqol namoyon bo'ladi. 2024-yil holatiga ko'ra, kredit portfeli jami aktivlarning eng katta ulushini 72.3 foizini tashkil etib, uning hajmi 471.4 trillion so'mni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich banklar faoliyatida kreditlash asosiy daromad manbai sifatida yetakchi o'rin tutayotganini va bank biznes modelining kreditga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Kassadagi naqd pul va to'lov hujjatlari aktivlarning 2,5 foizini yoki 16,4 trillion so'mni tashkil etdi, bu likvidlikni ta'minlash uchun zarur minimal zaxiralarni aks ettiradi. Qimmatli qog'ozlar portfeli aktivlarning 8,5 foizini yoki 55,4 trillion so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich oxirgi yillarda o'sish tendentsiyasini ko'rsatmoqda, chunki banklar o'z investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilishga intilmoqda.

3-jadval

Aktivlarning tarkibiy strukturasi (2020-2024, trln so'm va %) [11]

Ko'rsatkich	2020	Ulushi	2021	Ulushi	2022	Ulushi	2023	Ulushi	2024	Ulushi
Kredit portfeli	201,3	71,8%	258,7	70,2%	332,5	71,8%	397,2	72,6%	471,4	72,3%

Ko'rsatkich	2020	Ulushi	2021	Ulushi	2022	Ulushi	2023	Ulushi	2024	Ulushi
Naqd pul va to'lov hujjatlari	9,8	3,5%	11,5	3,1%	12,9	2,8%	15,2	2,8%	16,4	2,5%
Qimmatli qog'ozlar	18,5	6,6%	25,8	7,0%	34,7	7,5%	45,3	8,3%	55,4	8,5%
Boshqa aktivlar	50,9	18,1%	72,4	19,7%	82,7	17,9%	89,6	16,3%	108,9	16,7%
Jami aktivlar	280,5	100%	368,4	100%	462,8	100%	547,3	100%	652,2	100%

Aktivlarning o'sishi bir necha omillar ta'sirida sodir bo'ldi. Avvalo, iqtisodiyotda kuzatilayotgan barqaror o'sish va biznes faolligining kengayishi kredit resurslariga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'ldi. Kelgusi omil sifatida aholi daromadlarining ortishi qayd etilib, bu holat iste'mol kreditlariga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga olib keladi. Bundan tashqari, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy loyihalar hamda sanoatni diversifikatsiya qilishga qaratilgan dasturlar uzoq muddatli moliyalashtirishga bo'lgan talabni oshiradi. Shu bilan birga, yangi banklarning bozorga kirib kelishi va mavjud banklar o'rtasida raqobatning kuchayishi kreditlash shartlarini yanada qulaylashtirish hamda mahsulotlar qatorini kengaytirishga xizmat qiladi. Nihoyat, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi operatsion xarajatlarni qisqartirish bilan bir qatorda bank xizmatlari hajmini oshirish imkonini yaratadi.

Kredit portfeli bank tizimining eng muhim aktivlaridan biri bo'lib, real sektorni moliyalashtirish mexanizmining markaziy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. 2020 yilda kredit portfeli 201,3 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu YaIMning 22,5 foiziga to'g'ri kelardi. 2021 yilda portfel 258,7 trillion so'mga ko'tarilib, o'sish sur'ati 28,5 foizni tashkil etdi va YaIMga nisbati 24,8 foizga ko'tarildi.

4-jadval

Kredit portfelinig dinamikasi va YaIMga nisbati (2020-2024) [11]

Yil	Kredit portfeli (trln so'm)	O'sish (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)	YaIM (trln so'm)	Kreditlar/YaIM (%)	O'sish (foiz band)
2020	201,3	-	-	893,5	22,5%	-
2021	258,7	+57,4	+28,5%	1.043,0	24,8%	+2,3
2022	332,5	+73,8	+28,5%	1.226,4	27,1%	+2,3
2023	397,2	+64,7	+19,5%	1.373,8	28,9%	+1,8
2024	471,4	+74,2	+18,7%	1.560,2	30,2%	+1,3
O'sish (jami)	+270,1				+7,7 foiz band	
O'sish (ko'paytma)	2,34 baravarga					O'rtacha +1,9 foiz band/yil

Bu o'sish pandemiyadan keyingi tiklanish davri va biznes faoliyatining qayta tiklanishi bilan bog'liq edi. 2022 yilda kredit portfeli yana 28,5 foizga oshib, 332,5 trillion so'mga yetdi va YaIMga nisbati 27,1 foizni tashkil etdi. 2023 yilda portfel 397,2 trillion so'mga ko'tarilib, o'sish sur'ati 19,5 foizga sekinlashdi va YaIMga nisbati 28,9 foizni tashkil etdi. 2024 yilda kredit portfeli 471,4 trillion so'mga yetdi, o'sish sur'ati 18,7 foizni tashkil etdi va YaIMga nisbati 30,2 foizga ko'tarildi. Tahlil davri mobaynida kredit portfeli 2,34 baravarga o'sdi, bu bank tizimining real sektorni moliyalashtirishdagi rolining sezilarli darajada kuchayganligidan dalolat beradi.

Kredit portfelining sektoriy taqsimoti iqtisodiyotning strukturaviy xususiyatlarini va bank siyosatining yo'nalishlarini aks ettiradi. 2024-yil holatiga ishlab chiqarish sektori kredit portfelining 28.5 foizini oldi, bu esa 134.3 trillion so'mni tashkil etdi. Savdo sektori kredit portfelining 18.2 foizini yoki 85.8 trillion so'mni oldi.

5-jadval

Kredit portfelining sektoriy taqsimoti (2024 yil, trln so'm va %) [11]

Sektor	Kredit hajmi (trln so'm)	Ulushi (%)	2023 ga nisbatan o'sish (%)
Ishlab chiqarish	134,3	28,5%	+22,3%
Savdo	85,8	18,2%	+16,8%
Qishloq xo'jaligi	74,0	15,7%	+15,2%
Qurilish	58,5	12,4%	+19,5%
Xizmatlar ko'rsatish	55,6	11,8%	+14,7%
Aholi ipoteka kreditlari	40,5	8,6%	+17,3%
Boshqa yo'nalishlar	22,7	4,8%	+12,8%
Jami	471,4	100,0%	+18,7%

Bu esa ichki savdoning rivojlanishi va xorijiy savdo operatsiyalarining kengayishi bilan bog'liq bo'lgan. Qishloq xo'jaligi sektori 15.7 foiz yoki 74.0 trillion so'm bilan uchinchi o'rinda turadi, bu esa agrar sektorni modernizatsiya qilish va eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish siyosatining natijasidir.

6-jadval

Kredit portfelining valyuta tarkibi dinamikasi (2020-2024) [11]

Yil	Milliy valyuta (trln so'm)	Ulushi (%)	Xorijiy valyuta (trln so'm ekvivalenti)	Ulushi (%)	Jami (trln so'm)
2020	103,7	51,5%	97,6	48,5%	201,3
2021	141,7	54,8%	117,0	45,2%	258,7
2022	190,2	57,2%	142,3	42,8%	332,5
2023	240,3	60,5%	156,9	39,5%	397,2

Yil	Milliy valyuta (trln so'm)	Ulushi (%)	Xorijiy valyuta (trln so'm ekvivalenti)	Ulushi (%)	Jami (trln so'm)
2024	300,7	63,8%	170,7	36,2%	471,4
O'zgarish (foiz band)		+12,3		-12,3	

Kredit portfelining valyuta tarkibi dollarizatsiya darajasini va valyuta xavfini baholash uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi. 2020 yilda kredit portfelida xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi 48,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 45,2 foizga, 2022 yilda 42,8 foizga, 2023 yilda 39,5 foizga va 2024 yilda 36,2 foizga kamaydi. Bu progressiv de-dollarizatsiya jarayoni Markaziy Bankning milliy valyutada operatsiyalarni rag'batlantirish siyosati, milliy valyutadagi kreditlar uchun imtiyozli shartlar yaratish va valyuta stavkalarini oshirish orqali xorijiy valyutada operatsiyalarni cheklash choralarining natijasi hisoblanadi.

7-jadval

Kredit portfelining muddatli tuzilishi (2024 yil) [11]

Muddat	Hajmi (trln so'm)	Ulushi (%)	Asosiy yo'nalishlari
qisqa muddat (1 yil)	153.2	32.5 %	Aylanma mablag'lar, savdo operatsiyasi
o'rta muddat (1-3 yil)	135.8	28.8 %	Investitsiya loyihalari va uskuna
uzoq muddatli (3 yildan oshgan)	182.4	38.7 %	Ipoteka gigant infratuzilma va sanoat modernizatsiyasi
Jami	471.4	100 %	

Kredit portfelining muddatli tuzilishi likvidlik xavfini va aktivlar-passivlar muvofiqligini baholash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yil holatiga qisqa muddatli kreditlar kredit portfelining 32.5 % ini yoki 153.2 trillion so'mni tashkil etdi, bu asosan savdo operatsiyalarini moliyalashtirish va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun berilgan kreditlarni o'z ichiga oladi. O'rta muddatli kreditlar (1 yildan 3 yilgacha) portfelning 28,8 foizini yoki 135,8 trillion so'mni tashkil etdi va bu asosan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlardir. Uzoq muddatli kreditlar (3 yildan ortiq) portfelning 38,7 foizini yoki 182,4 trillion so'mni tashkil etdi va bu asosan ipoteka kreditlari, yirik infratuzilma loyihalari va sanoat modernizatsiyasi uchun ajratilgan kreditlarni o'z ichiga oladi.

Kapital bazasi bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, banklarning xavflarni qabul qilish qobiliyatini belgilaydi. 2020 yilda bank tizimining jami kapitali 42,8 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda u izchil ravishda oshib, 2024 yilga kelib 97,1 trillion so'mga yetdi.

8-jadval

Mijozlar depozitlarining dinamikasi (2020-2024) [11]

Yil	Depozitlar (trln so'm)	O'sish (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)	Aktivlarga nisbati (%)	Bir kishiga to'g'ri keladi (ming so'm)
2020	102,5	-	-	36,5%	3.005
2021	138,9	+36,4	+35,5%	37,7%	4.012
2022	178,3	+39,4	+28,4%	38,5%	5.082
2023	214,8	+36,5	+20,5%	39,3%	6.035
2024	241,7	+26,9	+12,5%	37,1%	6.672
O'sish (jami)	+139,2				+3.667 ming so'm
O'sish (ko'paytma)	2,36 baravarga				2,22 baravarga

2021 yilda depozitlar 35,5 foizga keskin oshib, 138,9 trillion so'mga yetdi va aktivlarning 37,7 foizini tashkil etdi. Bu o'sish pandemiya davrida aholining ehtiyot sarf-xarajatlarga moyilligining ortishi, yuqori foiz stavkalari va bank tizimiga ishonchning mustahkamlanishi bilan bog'liq edi. 2022 yilda depozitlar 28,4 foizga o'sib, 178,3 trillion so'mga ko'tarildi va aktivlarning 38,5 foizini tashkil etdi. 2023 yilda depozitlar 20,5 foizga oshib, 214,8 trillion so'mga yetdi va aktivlarning 39,3 foizini tashkil etdi. 2024 yilda depozitlar 12,5 foizga o'sib, 241,7 trillion so'mga yetdi, biroq aktivlarning ulushi 37,1 foizga tushdi.

9-jadval

Depozitlarning tarkibiy strukturasi (2024 yil) [11]

Toifa	Hajmi (trln so'm)	Ulushi (%)	Muddatli depozitlar (%)	Talab depozitlari (%)
Jismoniy shaxslar depozitlari	140,9	58,3%	76,5%	23,5%
- Muddatli depozitlar	107,8	44,6%	100,0%	-
- Talab depozitlari	33,1	13,7%	-	100,0%
Yuridik shaxslar depozitlari	100,8	41,7%	31,8%	68,2%
- Muddatli depozitlar	32,1	13,3%	100,0%	-
- Talab depozitlari	68,7	28,4%	-	100,0%
Jami depozitlar	241,7	100,0%	57,9%	42,1%

Depozitlarning tarkibiy strukturasi mijozlar toifasi bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga bo'linadi. 2024 yil holatiga jismoniy shaxslar depozitlari jami depozitlarning 58,3 foizini yoki 140,9 trillion so'mni tashkil etdi, yuridik shaxslar depozitlari esa 41,7 foizini yoki 100,8 trillion so'mni tashkil etdi. Jismoniy shaxslar

depozitlarining dominant ulushi bank tizimining chakana biznesga yo‘nalganligini va aholining moliyaviy xizmatlarga kirishining kengayganligini ko‘rsatadi.

10-jadval

Depozitlarning valyuta tarkibi dinamikasi (2020-2024) [11]

Yil	Milliy valyuta (trln so‘m)	Ulushi (%)	Xorijiy valyuta (trln so‘m ekvivalenti)	Ulushi (%)	Jami (trln so‘m)	Yil
2020	48,9	47,7%	53,6	52,3%	102,5	2020
2021	71,5	51,5%	67,4	48,5%	138,9	2021
2022	100,3	56,3%	78,0	43,7%	178,3	2022
2023	129,4	60,2%	85,4	39,8%	214,8	2023
2024	155,1	64,2%	86,6	35,8%	241,7	2024
O‘zgarish (foiz band)		+16,5		-16,5		O‘zgarish (foiz band)

Depozitlarning valyuta tarkibi dollarizatsiya darajasini va aholining milliy valyutaga ishonchini aks ettiradi. 2020-yilda depozitlar tarkibida xorijiy valyutaning ulushi 52.3 foizni tashkil etgan bo‘lsada keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkich izchil ravishda pasayib brogan va 2024-yilga kelib 35.8 foizgacha tushadi. Mazkur dinamika bank tizimida dollarizatsiya darajasining bosqichma-bosqich kamayib borayotganini ko‘rsatdi. Depozitlar dollarizatsiyasining kamayishi Markaziy Bankning de-dollarizatsiya siyosatining samaradorligini, milliy valyuta kursining nisbatan barqarorlashuvini va milliy valyutadagi depozitlar uchun raqobatbardosh foiz stavkalarini taklif qilish natijasida yuzaga keldi.

11-jadval

Depozitlarning muddatli tuzilishi (2024 yil) [11]

Muddat	Hajmi (trln so‘m)	Ulushi (%)	O‘rtacha foiz stavkasi (%)
Qisqa muddatli (6 oygacha)	102,7	42,5%	13,5%
O‘rta muddatli (6 oydan 1 yilgacha)	76,9	31,8%	14,8%
Uzoq muddatli (1 yildan ortiq)	62,1	25,7%	16,2%
Jami	241,7	100,0%	14,5% (o‘rtacha)

2024 yil holatiga qisqa muddatli depozitlar (6 oygacha) jami depozitlarning 42,5 foizini yoki 102,7 trillion so‘mni tashkil etdi, o‘rta muddatli depozitlar (6 oydan

1 yilgacha) 31,8 foizini yoki 76,9 trillion so‘mni, uzoq muddatli depozitlar (1 yildan ortiq) 25,7 foizini yoki 62,1 trillion so‘mni tashkil etdi.

Makroiqtisodiy muhit bank tizimi faoliyatiga bevosita hamda sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi va bu iqtisodiy o‘sinh sur‘atlari inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari dinamikasi hamda valyuta kursining barqarorligi bank biznesining asosiy parametrlarini va strategik qarorlarini belgilab berdi.

12-jadval

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va bank sektori (2020-2024) [11]

Yil	YaIM o‘sishi (%)	Inflyatsiya (%)	Asosiy stavka (o‘rtacha, %)	Bank kreditlari o‘sishi (%)	Ishsizlik darajasi (%)
2020	1,9%	11,1%	16,0%	8,5%	10,5%
2021	7,4%	10,8%	14,0%	28,5%	9,2%
2022	5,7%	11,9%	15,5%	28,5%	7,8%
2023	6,0%	9,2%	15,0%	19,5%	5,2%
2024	6,5%	10,0%	14,5%	18,7%	4,2%
O‘rtacha	5,5%	10,6%	15,0%	20,7%	7,4%

O‘zbekiston iqtisodiyoti tahlil qilinadigan davrda nisbatan yuqori o‘sinh sur‘atlarini ko‘rsatdi va bu bank sektorining rivojlanishi uchun qulay makroiqtisodiy muhitni yaratdi. 2020-yilda YaIM o‘sishi 1.9 foizni tashkil etadi va bu pandemiya cheklovlari va jahon iqtisodiyotining qiyinchiliklari ta‘sirida past ko‘rsatkich bo‘ladi. 2021 yilda YaIM o‘sishi keskin tiklanib, 7,4 foizga yetdi, bu pandemiyadan keyingi kompensatsion o‘sinh va davlat tomonidan amalga oshirilgan rag‘batlantiruvchi siyosat natijasi edi. 2024 yilda YaIM 6,5 foizga o‘sd.

13-jadval

Foiz stavkalari dinamikasi (2020-2024, %) [11]

Yil	Kreditlar bo‘yicha o‘rtacha stavka	Depozitlar bo‘yicha o‘rtacha stavka	Foiz marjasi	Real kreditlar stavkasi	Real depozit stavkasi
2020	22,5%	15,2%	7,3%	11,4%	4,1%
2021	21,8%	14,8%	7,0%	11,0%	4,0%
2022	22,3%	15,5%	6,8%	10,4%	3,6%
2023	21,5%	15,0%	6,5%	12,3%	5,8%
2024	20,8%	14,5%	6,3%	10,8%	4,5%
O‘zgarish (foiz band)	-1,7	-0,7	-1,0		

Foiz stavkalari dinamikasi bank tizimining daromadliligiga va kreditlashning jozibadorligiga ta‘sir ko‘rsatadi. 2020 yilda kreditlar bo‘yicha o‘rtacha yillik foiz stavkasi 22,5 foizni tashkil etdi, depozitlar bo‘yicha o‘rtacha stavka esa 15,2 foiz edi, foiz marjasi 7,3 foizni tashkil etdi. 2024 yilda kreditlar stavkasi 20,8 foizga, depozitlar stavkasi 14,5 foizga tushdi va foiz marjasi 6,3 foizni tashkil etdi. Foiz

stavkalari va marjasining progressiv kamayishi raqobatning kuchayishi, operatsion xarajatlarning kamayishi va Markaziy Bankning kreditlashni rag'batlantirish siyosati natijasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston tijorat banklarining 2020–2024-yillardagi rivojlanish tendentsiyalari tahlili bank tizimining miqyosi va qamrovi sezilarli darajada kengayganini ko'rsatdi. Mazkur davrda bank aktivlari 280,5 trln so'mdan 652,2 trln so'mga — ya'ni 2,33 baravarga — oshdi va YaIMdagi ulushi 31,4% dan 41,8% gacha yetdi. Bu o'sish nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlarda, balki xizmatlar sifati, moliyaviy inklyuziya darajasi va institutsional mustahkamlik jihatidan ham namoyon bo'ldi. Shuningdek, kredit portfeli 471,4 trln so'mga yetib, iqtisodiyotning real sektorini — ishlab chiqarish (28,5%), savdo (18,2%) va qishloq xo'jaligi (15,7%) — moliyalashtirish faollashdi.

Tadqiqot O'zbekiston bank tizimida bir qator tarkibiy muammolar mavjudligini aniqlab berdi. Birinchidan, davlat banklarining dominant mavqei (aktivlarning 68%) bozor raqobatini cheklaydi va resurslar taqsimotining samaradorligini pasaytiradi. Ikkinchidan, qisqa muddatli depozitlarning yuqori ulushi (42,5%) uzoq muddatli kredit berish imkoniyatlarini cheklaydi. Ijobiy tendentsiya sifatida dedollarizatsiya jarayoni alohida ta'kidlanadi: kredit portfelidagi xorijiy valyuta ulushi 48,5% dan 36,2% gacha, depozitlardagi ulush esa 52,3% dan 35,8% gacha kamaydi. Bu ko'rsatkichlar milliy valyuta barqarorlashayotgani va aholining so'mga bo'lgan ishonchi ortayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston bank tizimini yanada rivojlantirish uchun bir qator strategik yo'nalishlar belgilandi. Raqamli transformatsiyani jadallashtirib, fintech innovatsiyalarini keng joriy etish operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar qamrovini kengaytirishning asosiy omili hisoblanadi. Davlat banklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish esa raqobat muhitini kuchaytiradi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Institutsional muhitni yaxshilash — ya'ni huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, korporativ boshqaruvni mustahkamlash va moliyaviy monitoring tizimini kengaytirish — bank sektori barqarorligining uzoq muddatli kafolati sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklari tizimi transformatsiya yo'lida muhim natijalarga erishgan bo'lsa-da, uning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maqsadli islohot siyosatini davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Farrell, M. J. (1957). *The measurement of productive efficiency*. Journal of the Royal Statistical Society: Series A (General), 120(3), 253–290..
2. Leibenstein, H Allocative efficiency vs. “X-efficiency” 56(3), 392–415.
3. Freeman, R. E, Strategic management: A stakeholder approach
4. North, D. C. Institutions, institutional change and economic performance
5. Williamson, O. E. (1985). New York: Free Press The Economic Institutions of Capitalism
6. Lee C. C. Li X Yu, C H, Zhao, J. Does fintech innovation improve bank efficiency 74- 468-483.
7. Umar M, Ji X., Mirza N., Rahat B. The impact of resource curse on banking efficiency
8. Martens W., Yapa P., Safari M., Watts S. The influence of earnings management on bank efficiency the case of frontier markets,7(10).
9. Anto R., Pangestusti I. R. D., Purwandari E. N. Determinants of bank efficiency in ASEAN5 size as a control variable, 542-547.
- 10.Minh Sang, N Impact of the Covid-19 pandemic on bank efficiency in Vietnam 17, 13-23.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz